

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Bilim va malakalarni baholash agentligining 2023-yil I yarim yillikka mo'ljallangan  
ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
<b>Ia. Bilim va malakalarni baholash agentligining 2023-yil I yarim yillikda Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari</b>			
1.	<b>Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.</b>	2023-yil I yarim yillik	Direktor o'rinbosarlari  Boshqarma va bo'lim boshliqlari
2.	<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda <u>Oliy Majlisga Murojaatnomasidan</u> kelib chiqadigan ijtimoiy sohani rivojlantirishga tegishli vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.</b>	2023-yil I yarim yillik	Direktor o'rinbosarlari  Boshqarma va bo'lim boshliqlari
3.	<b><u>Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan</u> kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.</b>	2023-yil I yarim yillik	Direktor o'rinbosarlari  Boshqarma va bo'lim boshliqlari
4.	<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika <u>hududlariga tashriflari yakunlari</u> bo'yicha tasdiqlangan bayonnomalarda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash.</b>	2023-yil I yarim yillik	Direktor o'rinbosarlari  Boshqarma va bo'lim boshliqlari
5.	<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti <u>huzurida o'tkazilgan majlislar</u> bayonnomalarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash.</b>	2023-yil I yarim yillik	Direktor o'rinbosarlari  Boshqarma va bo'lim boshliqlari

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroridan <b>kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.</b>	2023-yil I yarim yillik	Direktor o'rinbosarlari          Boshqarma va bo'lim boshliqlari
<b>Ib. Bilim va malakalarni baholash agentligining 2023-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflari</b>			
<b>Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida</b>			
7.	Chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash bo'yicha test sinovlarini respublikamiz hududlarida muntazam tashkil etish va o'tkazish hamda yoshlar o'rtasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish.	2023-yil I yarim yillik	Chet tilini bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi (J.Nurmatov)  Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi (F.Mirzayev)
8.	Davlat tilini bilish darajasini baholash bo'yicha test sinovlarini respublikamiz hududlarida muntazam tashkil etish va o'tkazish.	2023-yil I yarim yillik	Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Z.Shakarov)  Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi (F.Mirzayev)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
9.	Umumta'lim fanlaridan test topshiriqlarini testologiyaning klassik va zamonaviy nazariyasi bo'yicha statistik tahlil qilish va ilmiy asoslash hamda test topshiriqlari sifatini yaxshilash bo'yicha taklif, tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqish.	2023-yil I yarim yillik	Testologiya, pedagogik o'lchovlar va ilmiy-metodik bo'limi (Z.Mirvaliyev)  Ilmiy-o'quv amaliy markaz (A.Baratov)
10.	Oliy ta'lim tashkilotlariga kirish uchun 2023/2024-o'quv yiliga mo'ljallangan umumta'lim fanlari bo'yicha test topshiriqlari bazasini aprotatsiyadan o'tkazish va statistik tahlilini amalga oshirish.	2023-yil may	Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Olimbekov)  Testologiya, pedagogik o'lchovlar va ilmiy-metodik bo'limi (Z.Mirvaliyev)
11.	Oliy ta'lim tashkilotlariga kirish uchun 2023/2024-o'quv yiliga mo'ljallangan umumta'lim fanlari bo'yicha test topshiriqlari bazasini shakllantirish va ekspertizadan o'tkazish:  birinchi bosqich; ikkinchi bosqich.	2023-yil 30-iyun  fevral aprel	Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Olimbekov)  Bo'lim boshliqlari (A.Sulaymonov, Z.Mirvaliyev)
12.	Shaxsiy ish rejalarni shakllantirish, tasdiqlatish va ijrosini amalga oshirish:  direktor o'rinbosari va tarkibiy bo'linmalar boshliqlari;  boshqaruv apparati xodimlari.	2023-yil I yarim yillik  har oyda  har chorakda	Direktor o'rinbosarlari   Barcha boshqarma va bo'lim boshliqlari
13.	Agentlik faoliyatiga oid ta'lim va fan bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish.	2023-yil 30-iyun	Yuridik byuro (G.Madrahimova)  Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (Q.Yusupov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
14.	Onlayn test axborot tizimini bosqichma bosqich hududiy bo'limlarda joriy etish.	2023-yil I yarim yillik	Test sinovlarining kompyuter tahlili va axborotlashtirish boshqarmasi (N. Ochilov)
15.	Britaniya Kengashi bilan hamkorlikda "Test topshiriqlarini shakllantirish" mavzusida Agentlik xodimlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.	2023-yil aprel	Xalqaro reytinglar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish bo'limi (N.Lutfiyev)
<b>II. Bilim va malakalarni baholash agentligining 2023-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari</b>			
<b>Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida</b>			
16.	Agentlikda ijro intizomini samarali tashkil etishning tanqidiy tahlil natijalarini muhokama qilish.	2023-yil I yarim yillik  har oyning 10-sanasiga qadar	Ijro intizomi nazorati bo'limi (B.Yusupov)  Boshqarma va bo'lim boshliqlari
17.	2023-2024 o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul test sinovlariga tayyorgarlik holati natijalarini muhokama qilish.	2023-yil iyun	Direktor o'rinbosari (S.Radjabov)  Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi (F.Mirzayev)  Test sinovlarini tashkil etish va nazorat qilish boshqarmasi (A.Xayitov)
18.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tartibi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijadorligi tahlilini amalga oshirish.	2023-yil iyun	Direktor o'rinbosari (S.Radjabov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
			Chet tilini bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi (J.Nurmatov)
<b>III. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o'rganish</b>			
<b>Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida</b>			
19.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son qarori</b> ijrosini o'rganish.	2023-yil iyun	Yuridik byuro (G.Madrahimova)  Matbuot xizmati (O.Boboyev)
20.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-fevraldagi “Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida” 73-son qarori ijrosini o'rganish	2023-yil iyun	Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Z.Shakarov)  Ijro intizomi nazorati bo'limi (B.Yusupov)
<b>IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlarida Bilim va malakalarni baholash agentligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar</b>			
21.	Agentlik faoliyatiga oid hisobotni shakllantirish va rasmiy veb-saytda e'lon qilish.	2023-yil 25-fevral	Ijro intizomi nazorati bo'limi (B.Yusupov)  Boshqarma boshliqlari (F.Mirzayev, A.Xayitov, Z.Olimbekov, J.Nurmatov, N.Ochilov, U.Abdinazarov)  “Elektron hukumat” tizimini joriy etish bo'limi (Z.Raxmatov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
22.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6247-son Farmoniga muvofiq Agentlik faoliyatiga oid ma'lumotlarni keng jamoatchilikka Ochiq ma'lumotlar portali va rasmiy veb-sayt orqali e'lon qilish:</p> <p>Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>Agentlik mansabdor shaxslarining xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari, xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>Agentlik tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>Agentlik huzuridagi jamoatchilik kengashlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan: jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari); jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>Agentlikning tasdiqlangan yarim yillik ish rejasi.</p>	<p>2023-yil har chorak yakuni bo'yicha keyingi oying 20-sanasi gacha</p> <p>2023-yil 25-yanvar</p>	<p>Matbuot kotibi (O.Boboyev)</p> <p>Ishlar boshqarmasi (U.Abdinazarov)</p> <p>Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (S.Talipova)</p> <p>"Elektron hukumat" tizimini joriy etish bo'limi (Z.Raxmatov)</p> <p>Ijro intizomi nazorati bo'limi (B.Yusupov)</p>

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari
23.	Agentlik boshqaruvidagi binolarni zilzilabardoshlik bo'yicha elektron texnik pasportlarini yagona integratsiyalashgan platformaga kiritish.	2023-yil 25-fevral	Ishlar boshqarmasi (U.Abdinazarov)
24.	<p>“Onlayn test” axborot tizimini joriy etish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi :</i></p> <p>Loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;</p> <p>loyihaning texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish;</p> <p>axborot tizimni ishlab chiqish va aprobatsiyadan o'tkazish</p>	<p>2023-yil 20-fevral</p> <p>2023-yil 20-mart</p> <p>2023-yil 20-aprel</p>	<p>Test sinovlarining kompyuter tahlili va axborotlashtirish boshqarmasi (N.Ochilov)</p> <p>Test sinovlarining dasturiy-texnik ta'minoti bo'limi (X.Nuraliyev)</p>
25.	Agentlikning mavjud binolarida kamida 30 foizgacha elektr energiyasini muqobil energiya manbalaridan olish maqsadida quyosh panellari o'rnatilishini tashkil etsish.	2023-yil 20-fevral	Ishlar boshqarmasi (U.Abdinazarov)
26.	Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida qatnashayotgan eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan abituriyentlarni majburiy tartibda surdotarjimon xizmatlari bilan ta'minlash yuzasidan shartnoma tuzilgan surdotarjimon pedagoglar uchun o'quv seminarlari tashkil etish va ularni guruh nazoratchisi sifatida faoliyat olib borish uchun tayyorlash.	2023-yil 20-iyun	<p>Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi (F.Mirzayev)</p> <p>Test sinovlarini tashkil etish va nazorat qilish boshqarmasi (A.Xayitov)</p> <p>Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bo'limlari</p>

<b>T/r</b>	<b>Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, direktor maslahatchilari va tarkibiy bo'linma boshliqlari</b>
27.	Agentlik tomonidan taqdim etiladigan barcha turdagi malaka sertifikatlarining muddati tugashidan oldin sertifikat egalarini malaka sertifikati muddatini uzaytirish (malaka oshirishi) lozimligi haqida xabardor qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.	2023-yil 1-iyun	<p>Xodimlar bilan ishlash shu'basi (B.Komilov)</p> <p>Test sinovlarining dasturiy-texnik ta'minoti bo'limi (X.Nuraliyev)</p> <p>Boshqarma boshliqlari (J.Nurmatov, N.Ochilov)</p>